

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DINIY EKSTREMIZM VA XALQARO
TERRORIZMGA QARSHI KURASH-DAVR TALABI**

Rafikova Muattar Ravshanovna

*Bojxona instituti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrası boshlig'i,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori
(PhD), dotsent, podpolkovnik*

Baxtiyorova Nozimaxon Olimjonovna

*Bojxona instituti 1-kurs
425-guruh kursanti*

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 10.11.2025

Revised: 11.11.2025

Accepted: 12.11.2025

*Ushbu maqola diniy ekstremizm va xalqaro
terrorizmning bugungi global xavfsizlikka solayotgan
tahdidini tahlil qilingan. Unda diniy ekstremizmning
ildizlari, diniy ekstremizmning mazmun-mohiyati,
xalqaro terrorizmga qarshi kurash masalalari
yoritilgan.*

KALIT SO'ZLAR:

*Diniy ekstremizm,
xalqaro terrorizm,
global tahdid, kurash
strategiyasi,
mafkuraviy kurash,
profilaktika,
bag'rikenglik
(tolerantlik), xavfsizlik,
xalqaro hamkorlik,
ma'rifat.*

Bugungi dunyoda insoniyat tinchligi va xavfsizligiga tahdid soluvchi eng jiddiy xatarlardan biri diniy ekstremizm va uning eng xavfli ko'rinishi bo'lgan xalqaro terrorizm hisoblanadi. Bu tahdid nafaqat bitta davlatning, balki butun xalqaro hamjamiyatning dolzarb muammosiga aylangan.

Diniy ekstremizm muayyan e'tiqodlarni mutlaqlashtirib, boshqa g'oyalarni, madaniyatlarni va dunyoqarashlarni rad etishga, hatto zo'ravonlikni oqlashga asoslanadi. Bu radikal g'oyalar ijtimoiy-iqtisodiy zaifliklar, ta'limdagi bo'shliqlar va siyosiy beqarorlik sharoitida ildiz otadi.

Ekstremizmning xalqaro terrorizmga aylanishi uning miqyosini kengaytiradi. Xalqaro terrorizm – bu o'z siyosiy, diniy yoki mafkuraviy maqsadlariga erishish uchun aholini qo'rqitish, beqarorlik yaratish va davlat hokimiyatiga ta'sir o'tkazishga qaratilgan transmilliy zo'ravonlik harakatlaridir. Uning xalqaro tus olishi terrorchi guruhlarining

=====

chegaralarni bilmasligi, moliyaviy manbalarning global tarqalgani va Internet orqali amalga oshiriladigan kuchli targ'ibot bilan belgilanadi. Terrorchi tashkilotlar ijtimoiy tarmoqlardan foydalanib, o'z g'oyalarini yoyadi, yoshlarni yollaydi va radikal mafkuraga qarshi turuvchi ma'rifiy immunitetni zaiflashtiradi.

Diniy ekstremizm va terrorizm to'g'risida bir qancha xalqaro hujjatlar qabul qilingan. Eng asosiy hujjatlardan biri bu BMTning Global Aksiterror Strategiyasi bo'lib, bu hujjat 2006-yil 8-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 60/288-sonli rezolyutsiyasi bilan bir ovozdan qabul qilingan. 2008-yilda BMT Bosh Assambleyasida yanada chuqurroq va kengroq yondashuvlar bilan tasdiqlangan. Ushbu Global Aksiterror strategiyasining bosh sahifalarida terrorizmga shunday ta'rif berib o'tilgan «Terrorizm — xalqaro tinchlik va xavfsizlikka eng jiddiy tahdidlardan biri hisoblanadi.». Keyingi o'rinda “Terrorizm, Separatizm va Ekstremizmga qarshi kurash bo'yicha Shanxay Konvensiyasi” hisoblanib, ushbu hujjat 2001-yil 15-iyunda Xitoyda qabul qilingan. Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHT) doirasida qabul qilingan bu konvensiya, asosan, Markaziy Osiyo, Sharqiy Osiyo va boshqa mintaqalarda terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashishga qaratilgan. Konvensiya SHT a'zolari o'rtasida turli terroristik tashkilotlarga qarshi kurashishda birlashishga chaqiradi. Shu bilan birga O'zbekistonda ham bir qator hujjarlar qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasining “Terrorizmga qarshi kurash to'grisida”gi qonun 2001-yil 20-fevral sanasidan kuchga kirgan. Ushbu qonunning maqsadi terrorizmga qarshi kurash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. “Ekstremizmga qarshi kurash to'g'risida”gi qonun esa Qonunchilik palatasi tomonidan 2018-yil 12-iyunda, Senat tomonidan joriy yilning 28-iyunida ma'qullangan. Ushbu Qonunning maqsadi ekstremizmga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Shu bilan birga 2021-yil 2-iyulda “2021-2026- yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi tasdiqlash to'g'risida” 6255-sonli Prezident Farmoni tasdiqlandi.

Ekstremizm — bu ijtimoiy, siyosiy yoki diniy sohalarida radikal qarashlarni rivojlantirish, jamiyatda qabul qilingan umumiy qoidalarga, qonunlarga yoki urf-odatlariga qarshi kurashish. Ekstremizm sodda va tushunarli qoidalarni nazarda tutmaydi va boshqa fikrlarni to'liq rad etadi. Ekstremizmni ko'plab hollarda ijtimoiy adolat, tenglik, va inson huquqlari prinsiplariga qarshi tushunish mumkin [1]

Diniy ekstremizm — bu diniy e'tiqod va qadriyatlarni asos qilib olgan, ammo radikal va intolerant yondashuvni kuchaytirishdir. Bunday ekstremizm, o'zining noa'ramiz, ijtimoiy tizimlarga yoki boshqa dinlar va madaniyatlar bilan o'zaro to'qnashuviga olib kelishi mumkin. Diniy ekstremizm ba'zan tinchlik va farovonlikni xohlagan shaxslar yoki guruhlar tomonidan faqat o'zlarining diniy g'oyalarini kuchaytirish uchun ishlatiladi [2]

Terrorizm — bu, xalqaro tinchlikni va xavfsizlikni buzishga qaratilgan, ko'pincha zo'ravonlik va xavf solish usullaridan foydalaniladigan siyosiy yoki diniy maqsadlar bilan amalga oshiriladigan harakatlar. Terrorizmning maqsadi ko'pincha jamiyatni qo'rqitish,

hukumatni beqarorlashtirish yoki o'zining siyosiy yoki diniy g'oyalarini kuchaytirishdir. Terrorizm — insonlarning ommaviy qatl etilishiga yoki ularni jarohatlashga, iqtisodiy inqirozlar va ijtimoiy tizimlarning ish faoliyatini to'xtatishga olib keladigan harakatdir [3].

Xalqaro terrorizm — bu terroristik harakatlar yoki tashkilotlarning bir nechta davlatlarning fuqarolariga yoki ularning manfaatlariga qarshi amalga oshirilishi. Bunday terrorizm xalqaro xavfsizlikni tahdid qiladigan va butun dunyo bo'yicha tarqalgan bir nechta davlatlar yoki guruhlar tomonidan amalga oshiriladi. Xalqaro terrorizm odatda yadro qurollari, biologik qurollar yoki kiberhujumlar kabi vositalardan foydalanishni o'z ichiga olishi mumkin [4].

Manbalarda keltirilishicha diniy ekstremizm va terrorizm kabi hodisalarning ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi. "Terrorizm" so'zi birinchi marta 1793–1794-yillarda Fransiya inqilobi davrida iste'molga kiritilgan. O'sha davrda bu so'z ijobiy ma'noda qo'llangan va hukmdorlar tomonidan xalqqa nisbatan zulm oshib ketganda unga qarshi kurash ifodasi sanalgan. Shunday bo'lsada ular xech qachon ijtimoiy barqarorlik va tarqqiyot uchun bugungidek tahdid solmaganini qayd etib o'tish lozim. Zero hozirda diniy ekstremizm va terrorizm global xarakterga ega bo'lib, dunyoning barcha mamlakatlari hamda mintaqalariga birdek xavf solmoqda.

Bu globallashtirishga qarshi kurash faqat kuch ishlatish choralari bilan cheklanmasligi kerak, balki kompleks, ko'p qirrali va uzluksiz strategiyani talab qiladi. Eng avvalo, mafkuraviy kurash va profilaktika kuchaytirilishi zarur. Diniy ma'rifatni oshirish, Islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini to'g'ri tushuntirish, yoshlarni soxta diniy da'vatlardan himoya qilish muhim ahamiyatga ega. Jamiyatda bag'rikenglik (tolerantlik) va dinlararo muloqot madaniyatini rivojlantirish orqali radikalizmga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirish asosiy vazifadir. Shuningdek, OAV va internet maydonida ekstremistik kontentga qarshi turuvchi sifatli ma'rifiy kontentni ko'paytirish zarur.

Ikkinchidan, xavfsizlik choralari va huquqiy bazani mustahkamlash muhimdir. "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi qonunlar asosida terrorchilik va ekstremistik faoliyat uchun jazo choralari kuchaytirish, moliyaviy oqimlarni nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Maxsus xizmatlar, huquqni muhofaza qilish organlari o'rtasida ma'lumot almashinuvini va tezkor hamkorlikni kuchaytirish terrorchilik aktlarining oldini olishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Uchinchidan, kurashning muvaffaqiyati xalqaro hamkorlik darajasiga bevosita bog'liq. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) va boshqa mintaqaviy tashkilotlar doirasida terrorchilarning harakatlanishiga to'siq qo'yish, birgalikda operatsiyalar o'tkazish va tajriba almashishni kengaytirish zarur. Zero, terrorizmga qarshi turishda global yondashuv va birdamlik muhim ahamiyat kasb etadi. Faqatgina ijtimoiy adolatni ta'minlash, ma'rifatni kuchaytirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali bu global tahdidni bartaraf etishga erishish mumkin.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"dagi oltinchi ustuvor yo'nalish "Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish" deb nomlangani bejiz emas[5].

Ayniqsa, "Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini shakllantirish" yo'nalishning sarlavhali 82-maqsadi muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda Taraqqiyot strategiyasi doirasida, jumladan:

- ekstremizm va terrorizmni keltirib chiqaruvchi omillarning oldini olishga qaratilgan preventiv mexanizmlarni takomillashtirish, ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaxshilash, begona g'oyalar ta'sirining oldini olish va bunday ta'sirga tushib qolganlar bilan tizimli ishlash orqali ularning muammolarini bartaraf etish;
- aholi, ayniqsa yosh avlodda terrorizm va ekstremizm g'oyasiga qarshi qat'iy va barqaror immunitetni shakllantirish;
- ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning xalqaro-huquqiy asoslarini takomillashtirish hamda xorijiy davlatlar, mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar bilan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish sohasidagi hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini kengaytirish;
- diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalari, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi, shuningdek, chet elga uzoq vaqtga ketayotgan hamda yashab kelayotgan fuqarolar bilan shug'ullanuvchi boshqa idoralarning kadrlar salohiyati va resurslarini mustahkamlash;
- xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ekstremizm, terrorizm va ularni moliyalashtirishga qarshi kurash sohasida axborot hamda tajriba almashish;
- faoliyati ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishga qaratilgan xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda faol ishtirok etish;
- Markaziy Osiyoda BMTning Global aksilterror strategiyasini amalga oshirish bo'yicha hamkorlikdagi sa'y-harakatlarni birgalikdagi harakatlar rejasi doirasida muvofiqlashtirish;
- Markaziy Osiyoda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha birgalikdagi ishlar doirasida axborot almashinuvi va hamkorlikni rivojlantirishga yordam beruvchi xalqaro tashabbuslarni amalga oshirishda O'zbekistonning rolini kengaytirish;
- dunyo hamjamiyati va mintaqaviy tashkilotlar e'tiborini Afg'onistonda tinchlik va hamjihatlikni ta'minlashga jalb qilish borasidagi tashabbuslarni jadallashtirish va ushbu mamlakatni mintaqaviy hamkorlik jarayonlariga, shu jumladan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishga jalb qilish kabi muhim masalalar doirasida izchil ishlar boshlab yuborilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda diniy ekstremizm va uning eng xavfli ko'rinishi bo'lgan xalqaro terrorizm global tinchlik va xavfsizlikka tahdid soluvchi eng jiddiy xatardir. Ekstremizm muayyan e'tiqodlarni mutlaqlashtirib, zo'ravonlikni oqlashga asoslanadi va ijtimoiy-iqtisodiy zaifliklar sharoitida ildiz otadi. Terrorizm esa siyosiy, diniy yoki mafkuraviy maqsadlarga erishish uchun aholi orasida vahima uyg'otishga qaratilgan

transmilliy zo‘ravonlik usulidir. Terrorchilar chegaralarni bilmaydi, moliyaviy oqimlar global miqyosda tarqalgan va ular Internet, xususan, ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlarni yollab, radikal g‘oyalarni kuchli targ‘ib qiladi. Bu globallashtan tahdidga qarshi kurash faqat kuch ishlatish choralarini bilan cheklanmasligi kerak, balki kompleks va uzluksiz strategiyani talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. BMT— Global Counter-Terrorism Strategy 1-2sahifa
2. BMTning Global Aksiterror Strategiyasi I band, 3-4-paragraflar
3. BMT Bosh Assambleyasining 60/288-sonli rezolyutsiyasi, II band, 2-3-paragraflar
4. BMT Global Aksiterror Strategiyasi, IV band, 6-7-paragraflar
5. “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”
6. O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 15-dekabrida qabul qilingan "Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida"gi 167-II son qarori.
7. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Xavfsizlik Kengashining Rezolyutsiyalari. Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash bo‘yicha asosiy hujjatlar.
8. Karimov, I. A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida. Toshkent: O‘zbekiston. 2000-yil
9. Tohir, A. Diniy ekstremizm va terrorizm: nazariy-amaliy tahlil. Toshkent: Movarounnahr.2018-yil
10. Wilkinson, P. Terrorism Versus Democracy: The Liberal State Response. London: Frank Cass Publishers 2000-yil
11. Piyozev, B. Globallashtuv sharoitida diniy ekstremizmning oldini olishning ijtimoiy-huquqiy mexanizmlari. Toshkent: O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi. 2020-yil
12. Boboyev Jahongir. “Diniy ekstremizm va terrorizm tahdidini men qanday tushunaman” nomli maqola. 2020-yil
13. Akmal Saidov. “Terrorizmga qarshi kurashda inson huquqlarini ta‘minlash” nomli maqola. 2022-yil